

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CURRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

JILD 1 | SON 2

2025

LINGVOSCIENCES.UZ

**LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

1-jild 2-son 2025-yil

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: mardonbekoff@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-5245-6021>

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
O'zbekiston.

E-mail: bahrom_bek@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1266-1557>

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
O'zbekiston.

E-mail: zsaidboboev@yahoo.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-3960-2427>

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6105-4752>

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
O'zbekiston.

E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0534-5633>

Niyazov Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Professor. O'zbekiston.

E-mail: docravshanniyazov@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6146-1789>

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: z.sanakulov@cspu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6952-7738>

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: b_muxammed@karsu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9826-175X>

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. O'zbekiston.

E-mail: jafarbek22@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9867-3363>

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2208-7827>

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: zamira_6@yahoo.de

zamira.sh@terdpi.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-9870-6295>

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Yo'q. O'zbekiston.

E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent. O'zbekiston.

E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВИСТИКИ И КУЛЬТУРОЛОГИИ

**“Lingvistika va madaniyatshunoslik
fanlarining dolzarb masalalari”**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDAGI YUNON YOZUVI TARIXIY MANBA SIFATIDA	06-12
--	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Shodiyeva Gulrux Nazir qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA POLINDROMNING KOGNITIV-STILISTIK TADQIQI (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)	13-17
<i>Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi</i> O'ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARIDAGI GEYMONIMLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	18-23
<i>Anvarjonova Zarifakhon Abrorjon qizi</i> THE LANGUAGE OF MEMORY IN MODERN UZBEK AND ENGLISH PROSE	24-31

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi</i> PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR EGALLAYDIGAN KOMPETENSIYALAR MAZMUNI	32-44
--	-------

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 15 December 2025**Accepted:** 25 December 2025**Published:** 30 December 2025*Article / Original Paper***GREEK INSCRIPTIONS ON GRECO-BACTRIAN COINS AS HISTORICAL SOURCES****Suyarov Makhmudjon Sobirjon o'g'li**

Master's Degree Holder, Faculty of History, Samarkand State University

History Teacher at Specialized School No. 11 under the Kattakurgan City

Department of Public Education

Abstract. This article analyzes the inscriptions on coins minted in the ancient Greco-Bactrian kingdom as significant historical sources. The coins are examined as unique epigraphic and numismatic materials that reflect the political, economic, and cultural life of their time. The study demonstrates that the inscriptions found on the coins of rulers such as Diodotus I, Euthydemus, Eucratides, Agathocles, Plato, and Heliocles serve as important sources that make it possible to reintroduce data related to political legitimation, religious ideology, and state governance strategies into scientific circulation. Furthermore, the bilingual inscriptions on these coins are interpreted as clear examples of the synthesis of Eastern and Western cultural elements, representing the broader process of Hellenization.

Keywords: Greco-Bactrian Kingdom, Greek inscription, numismatics, Hellenism, epigraphy, Diodotus I, Euthydemus, Eucratides, Agathocles, bilingual coins, legitimation.

YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDAGI YUNON YOZUVI TARIXIY MANBA SIFATIDA**Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li**

Sam DU tarix fakulteti magistri

Kattaqo'rg'on shahar VXTB tasarrufidagi 11 — sonli IDUM

tarix fani o'qituvchisi

E-mail: suyarovmahmud2@gmail.com<http://www.orcid.org/0009-0002-2187-1051>

Anotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi Yunon-Baqtriya davlatida zarb etilgan tangalardagi yozuvlar muhim tarixiy manba sifatida tahlil qilinadi. Tangalar o'z davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi noyob epigrafik va numizmatik manba sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida Diodot I, Yevtidem, Yevkratid, Agatokl, Platon, Geliokl kabi hukmdorlarning tangalarida uchraydigan yozuvlar, ularning siyosiy legitimatsiyadagi ahamiyati, diniy mafkurani aks ettiruvchi jihatlari, davlat boshqaruvi strategiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni qayta ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradigan muhim manba ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, tangalardagi ikki tilli yozuvlar Sharq va G'arb madaniy unsurlarining sintezi – ellinizm jarayoning yaqqol namunasi sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: Yunon-Baqtriya davlati, yunon yozuvi, numizmatika, ellinizm, epigrafika, Diodot I, Yevtidem, Yevkratid, Agatokl, ikki tilli tangalar, legitimatsiya.

Kirish Salavkiylar davlatidan ajralib miloddan avvalgi III asr o'rtalarida mustaqil davlatga aylangan Yunon-Baqtriya davlati 120 yillik nisbatan qisqa hukmronlik davrida o'zidan boy moddiy, madaniy meros qoldirdi. Ushbu davlat ellinistik davrning muhim siyosiy

tuzilmalaridan biri hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlariga sezilarli hissa qo'shishdan tashqari, muhim tarixiy-moddiy manba bo'lib xizmat qilgan, davlat hukmdorlari tomonidan zarb etilgan tanga pullar Yunon-Baqtriya podsholigi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tangalar faqatgina iqtisodiy hayot vositasi bo'libgina qolmasdan, davlatda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tasdig'i sifatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yunon-Baqtriyada davlat tili yunon tili bo'lganligi tufayli ushbu tangalardagi aksariyat jumlar yunoncha bitilgan va ayrim hollardagina yunon hamda mahalliy tillar tangalarni ishlab chiqarish jarayonida birgalikda qo'llanilgan.

Tangalarda, asosan, hukmdorlarning ismlari, unvonlari, ularga berilgan maxsus nomlar, hukmronlik davri, diniy qarashlariga oid belgilar, ba'zan geografik joy nomlari va boshqa jihatlar aks etgan. Davlat hukmdorlarining deyarli har biri o'z hokimiyatini legitimlashtirish maqsadida tanga pullarni zarb ettirishga uringan. Hozirgi davr epigraf va numizmat olimlari aynan ushbu manbadagi yozuvlarga tayanib Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy tarixini o'rganishga harakat qilishmoqda. Chunki ushbu davlat qadimgi davr siyosiy birlashmalaridan biri bo'lganligidan u haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalar yetarli darajada mavjud emas. Shu tufayli tanga pullar mazkur davlat hukmdorlarining o'z hokimiyatini qonuniylashtirish uchun amalga oshirgan tadbirlari, diniy e'tiqodi, yunon va mahalliy xalqlar o'rtasidagi madaniy sintezlashuv jarayoni va ushbu tarixiy davrdagi xalqaro munosabatlarni tadqiq qilish uchun noyob ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Maqolada Diodot I, Yevtidem, Yevkratid, Agatokl, Platon, Geliokl kabi hukmdorlar tangalaridagi yunoncha va ayrimlarida uchraydigan hindcha tangalarning mazmuni tahlil qilinib, ularning tarixiy ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yunon-Baqtriya tangalarining epigrafik jihatdan o'rganilishi XIX asrning oxirlaridan boshlab ilmiy numizmatikaning muhim yo'nalishiga aylandi. Tadqiqotchi O. Bopearachchi [4, pp. 6–11] Yunon-Baqtriya hukmdorlarining xronologiyasini aniq belgilashda epigrafik ma'lumotlardan keng foydalangan. Sovet arxeologlaridan G. Pugachenkova 1971-yilda Dalvarzintepada olib borgan tadqiqotlari natijasida Yunon-Baqtriya davlati tarixiga oid arxeologik madaniy qatlamlarni o'rganib, boy moddiy-ashyoviy manbalarni qo'lga kiritdi [13, pp. 58-63]. Qadimiy Taxtisingin hududida qazishma ishlarini olib borgan arxeolog olim E. V. Zeimal ham bir qator Yunon-Baqtriya podsholigiga oid tangalarni topib o'rgangan [12, c. 103]. Shu va boshqa arxeolog olimlarning izlanishlari natijasida qisman bo'lsa-da, ellin-yunon madaniyatining mahalliy unsurlar bilan sintezlashuv jarayoni ko'rsatib berilgan. Ushbu maqolada yunon yozuvlarining filologik, siyosiy va epigrafik tahlili kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqildi.

Ma'lumotlar tahlili jarayonida bir qator metodlardan foydalanildi. Dastlab epigrafik tahlil yordamida tangalardagi yunon yozuvining tuzilishi, harf shakllari o'rganildi. Filologik yondashuv asosida podsholarning unvonlari, maxsus berilgan nomlari hamda siyosiy mazmundagi boshqa terminlar tarjima qilindi. Numizmatik tahlil yordamida esa tangalarda aks etgan obrazlar, ularning metall tarkibi, zarb qilish usullari va tarqalish geografiyasini o'rganishga urinildi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali Yunon-Baqtriya tangalari davlatning miloddan avvalgi II asr boshlarida paydo bo'lgan tarmog'i hisoblanmish Hind-Yunon davlati hukmdorlari tanga pullari bilan o'zaro solishtirildi. Shuningdek, tangalardagi diniy ramz va belgilar atroficha tadqiq qilindi. Tadqiqot ayrim kamchiliklarining sababi sifatida ba'zi tangalarning yaxshi holatda saqlanmaganligi ya'ni undagi yozuv, tasvirlar to'la yoki qisman o'chib ketganligini keltirish mumkin.

Natijalar. Podsholik asoschisi hisoblangan Diodot I Soter o'z tangasiga yunoncha "ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΔΙΟΔΟΤΟΥ" jumlasini yozdirgan. Miloddan avvalgi 245-yilda zarb etilgan oltin tanganing old tomonida Diodotning o'zi, orqa tomonida esa Olimp oliy xudosi Zevs qalqon va chaqmoq ushlagan holda tasvirlangan [2, pp. 511–512]. Yunoncha yozilgan "ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΔΙΟΔΟΤΟΥ" ya'ni "Basileōs Diodotou" jumlasini "shoh Diodotga tegishli" ma'nosini beradi. Davlatning dastlabki hukmdorlaridan biri Yevtidem (mil.avv 230-200) ham o'z tangasini zarb ettirgan. Tanganing old tomonida hukmdorning o'zi, orqa tomonida esa Gerakl o'tirgan holatda, o'ng qo'lida yog'och xoda tutgan holda tasvirlangan. Tanganing aynan ushbu tomonida yunoncha yozuvda ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΕΥΘΥΔΗΜΟΥ (Basileōs Euthydē mou) ya'ni "shoh Yevtidemning tangasi" mazmunida jumla bitilgan.

Yunon-Baqtriya podsholigidagi uchinchi sulola asoschisi Yevkratid ham o'ziga xos tangasi bilan mashhur bo'lgan.



Ushbu tanganing o'ziga xos tomoni shundaki, undagi yozuvlar ikki tilda bitilgan ya'ni tangada ham yunoncha ham hind tilidagi jumlaning uchratish mumkin. Hind standartida zarb qilingan ushbu tanganing old tomonida "ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΜΕΓΑΛΟΥ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ" – "Basileōs Megalou Eukratidou" ya'ni "Buyuk podsho Yevkratidning tangasi" jumlasini hukmdorning tasviri bilan birga zarb etilgan [3, p 9.]. Tanganing orqa tomonida esa hind-Pali tilida, xoroshtiy yozuvida "Maharajasa Evukratidasa" ya'ni "Buyuk podsho Yevkratid" jumlasini bitilgan.

Podsho Yevkratid ayniqsa o'zining oltin tangasi bilan mashhur bo'ldi.



Ushbu 20 staterlik oltin tanga tadqiqotchilar tomonidan antik davrning eng yirik hajmli oltin tangasi sifatida tan olingan. Tanganing og'irligi 169,2 gramm bo'lib, diametri 58 mm (ba'zi manbalarda 60 mm) edi. Tanganing old tomonida hukmdor tasviri aks etgan [7]. Tanganing orqa tomonida ot ustidagi Dioksurlar tasvirlangan. Ayni ushbu tomonida "ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΜΕΓΑΛΟΥ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ" ya'ni "Buyuk shoh Yevkratidga tegishli" jumlasini bitilgan [9]. Yevkratidning kumush tetradraxmasi ham mavjud bo'lib, unda boshqa tangalarga o'xshash bo'lgan yunoncha jumlar va tasvirlar zarb qilingan. Tangadagi podsho Yevkratid ko'rinishi maxsus dubulg'a ustidan toj kiygan holda ishlangan [8].



Tanganing old tomonida odatdagidek hukmdorning o'zi tasvirlangan. Orqa tomonida yunoncha ushbu jumla bitilgan: “ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΔΙΚΑΙΟΥ ΗΛΙΟΚΛΕΟΥΣ” – “Adolatli podsho Geliokl”. Shuningdek tanganing ushbu tomonida yana yunonlar oliy xudosi Zevs tasvirlangan bo'lib, u davlat ramzlaridan biri bo'lmish hassa va chaqmoqni tutgan holda tasvirlangan.

Muhokama. Ma'lumki, Yunon-Baqtriya podsholigida Diodotlar, Yevtidemlar va Yevkratidlar kabi sulolalar hukmronlik qilishgan. Ularning barchasi yunon millatiga mansub podsholar bo'lganligi tufayli mamlakatda davlat ishlari yunon tilida amalga oshirilgan. Tabiiyki, tangalardagi yozuvlar ham yunon tilida bitilgan. Ularda podsholarning ismlari, unvonlari, hukmronlik yillari, geografik joy nomlari va boshqa muhim ma'lumotlar aks etgan.

Ellinistik davlatlardan biri hisoblangan Yunon-Baqtriyada tovar-pul munosabatlari boshqa shu turdagi siyosiy birlashmalar bilan ko'plab o'xshash jihatlariga ega hisoblanadi. Ayniqsa, mazkur tangalar o'zining shakli, hajmi, yozuvlarining tartibi bilan ko'pgina qadimgi davr yunon shahar-davlatlarining tanga pullari bilan o'xshash jihatlariga ega hisoblanadi. Baqtriya hududlariga ko'chib kelgan ellinlar ya'ni yunonlar shu yo'l bilan ham o'zlarining madaniyatlari, diniy xususiyatlarini singdirishga harakat qilganlar. Fikrimizga dalil sifatida ayrim tangalarda uchraydigan, hukmdorlar bilan birga tasvirlangan yunon xudolarini keltirishimiz mumkin. Shu yo'l bilan podsholar o'z hukmronliklarini qonuniylashtirishgan hamda o'zlari hurmat qilgan turli yunon iloh va ma'budalaridan homiylik, madad istab ushbu ishni amalga oshirishgan. Shuningdek, ushbu tangalar davlatning ramziy belgisi sifatida ham funksiyasi mavjud bo'lgan. Ayrim tangalardagi yozuvlar o'zining muhim ramziy ma'no-mazmuniga ega bo'lgan. Jumladan, davlat asoschisi Diodot tomonidan zarb etilgan oltin tangadagi “ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΔΙΟΔΟΤΟΥ” so'z birikmasi “Podsho Diodot” ma'nosini berib, Salavkiylarning Baqtra hududi satrapi ya'ni viloyat hokimi hisoblangan bir kishi mustaqil davlat tuzganligini e'lon qilgan ishonchli numizmatik dalil hisoblanadi.

Yunon-Baqtriya podsholigidagi ikkinchi sulolaning asoschisi hisoblangan Yevtidem (mil.avv 230-200) o'zining “Megas” ya'ni “Buyuk” unvonini tangaga zarb qildirish orqali hokimiyatini mustahkamlashga urinadi. Podsho Buyuk Yevkratid ham “Megas” unvonini tangalariga yozdirish orqali siyosiy jihatdan o'z legitimatsiyasini mustahkamlashga harakat qilgan. Ushbu tanganing yunon yozuvidan tashqari hindcha yozuv bilan ham zarb qilinganligi podshoning Hindiston shimolining katta qismini egallab olganligi, nazorat qilganligi hamda o'z tanga pullarini muomalaga chiqarish orqali bu o'lkalarda o'z hukmronligini mustahkamlashga uringanligiga ishoradir. Demetriyning tangalarida esa uning Hindistonga yurishlarini tasdiqlovchi yozuvlar aks etgan hisoblanadi. Uning tasvirlangan tashqi ko'rinishi ya'ni filnikiga o'xshash yon tomondan ko'rinishi ham hukmdorning Hindiston shimoli-g'arbiy qismidagi ulkan sarhadlarni egallab olganligiga ishora hisoblanadi [11, pp. 97-98]. Podsho Agatokl tomonidan Aleksandr Makedonskiyga bag'ishlab zarb etilgan tanga faqat uning buyuk hukmdorga bo'lgan ehtiromini bildirmasdan, balki o'zini uning davomchisi sifatida hisoblashini ham anglatadi. Bundan tashqari podsho Agatokl bu tadbiri orqali o'tmishda faoliyat yuritgan buyuk sarkardaga o'xshashga bo'lgan urinishini ham sezishimiz mumkin.

Yuqoridagi tanga namunalarining deyarli barchasida, jumladan, Diadot I, Yevtidem, Yevkratid, Agatokl, Platon, Geliokl kabi hukmdorlar tomonidan zarb ettirilgan pullarda yunon xudo va ilohlarining tasvirlari keng qo'llanilishi Yunon-Baqtriya podsholarining faqat ularga bo'lgan yuksak ehtiromini bildiribgina qolmasdan, shu vositasida o'z hokimiyatlari qonuniyligini yanada mustahkamlashga urinishganligi tasdig'idir. Chunki davlat podsholari diniy e'tiqod kishilarni birlashtiruvchi, jipslashtiruvchi va ergashtiruvchi qudratli kuch ekanligini yaxshi anglashgan.

Yunon-Baqtriya hukmdorlari tomonidan muomalaga kiritilgan tangalar faqat iqtisodiy vosita bo'lib qolmasdan, ular ustida olib borilgan tadqiqotlar tangalarning davlat siyosiy tarixi bo'yicha noyob manba ekanligini tasdiqlamoqda. Fikrimiz dalili o'laroq, mazkur tangalarda podsholarning qachon hokimiyat tepasiga chiqqanligi, qachon hukmronligi tugaganligi, qanday unvon va maxsus nomlar bilan atalganligi, olib borgan diniy siyosati, o'z hukmronligini qonuniylashtirish uchun amalga oshirgan urinishlari aks etgan. Davlatda yunon tili davlat tili bo'lsa-da, keyinchalik tangalarda hind tilining ham qo'llanilishi Sharq va G'arb xalqlarning madaniy jihatdan sintezlashuvi – ellinizm jarayonining yaqqol tasdig'i hisoblanadi.

Tangalar orqali diniy mafkurani singdirish muhim ahamiyatga ega jihat hisoblanib, asosan, yunon xudo va ilohlariga tangalarda keng o'rin ajratiladi. Xususan, Yunon-Baqtriya podsholarining tangalarida Olimp bosh xudosi Zevs turli ko'rinish va turli buyumlar bilan birga, Dioksurlar (Kastor va Pollux) – yunonlar o'zligini ifodalaydigan siymolar sifatida, Nika – g'alaba ilohasi (Zevs bilan birgalikda), Appalon va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Keyinchalik Hindistonning shimoli-g'arbida Yunon-Baqtriya davlatining tarmog'i sifatida paydo bo'lgan Hind-Yunon davlatining yunon millatiga mansub qudratli hukmdorlaridan biri Menandr tangalarida ham ikki tilda ya'ni ham yunon ham mahalliy hind tilida tangalar zarb qilinganligi (tanganing old tomonida yunoncha, orqa tomonida esa hind mahalliy xaroshtiy yozuvidan foydalanilgan) o'zaro madaniy aralashuvning yaqqol namunasi hisoblanadi [1]. Ushbu holat Osiyoda antik davrda sodir bo'lgan ellinizm jarayonining yana bir dalili bo'lib xizmat qildi.

Xulosa. Yunon-Baqtriya tangalari faqat iqtisodiy hayot mahsuli bo'lmasdan, balki o'z davrining ham siyosiy, ham diniy-madaniy jarayonlarini yorituvchi muhim tarixiy-ashyoviy manba hisoblanadi. Tanga pullar yuzasiga bitilgan yunoncha yozuvlar yozma manbalar yetarli darajada bo'lmagan bir sharoitda obyektiv tarixiy-ilmiy haqiqatni ta'minlash imkonini bermoqda. Tangalar bir davlat tarixining turli jabhalarni batafsil yoritish imkoniga ega bo'lgan, metallga bitilgan tarixiy-moddiy manbalar hisoblanadi. Ham numizmat ham epigraf olimlar tomonidan o'rganib kelinayotgan ushbu moddiy-ashyoviy manbalar turli tasvirlar va yozuvlar bilan ellinizm davrni namoyon etayotganligi bilan nihoyatda qadrlidir.

Tangalardagi epigrafik ma'lumotlar davlat hukmdorlarining hokimiyatga kelgan vaqti, o'zlarini ulug'lash uchun qabul qilgan unvonlari, siyosiy jihatdan hokimiyatni legitimatsiyalash uchun qo'llagan usullari, ular Yunon-Baqtriyada keng targ'ib qilmoqchi bo'lgan diniy siyosatining mazmuni hamda ellin-yunon madaniyatining mahalliy an'analar bilan o'zaro uyg'unlashuv jarayonlari ko'rsatib berilgan. Xususan, ikki tilli ya'ni hindcha-yunoncha tangalar Sharq va G'arb madaniy unsurlari sintezi – ellinizm jarayonining aynan isboti hisoblanadi. Tangalar numizmatika va epigrafika fanlarining moddiy ashyosi sifatida butun ellinistik dunyo tarixini yoritib berishda o'ta muhim ahamiyatli manba bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish orqali O'rta Osiyo qadimgi davr tarixini tiklash ishlari o'zining samarali natijalarini bermoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. A Baktrian Nickel & Other Eastern Coins. Archived from the original on 6 March 2005. <https://web.archive.org/web/20050306233802/http://dougsmith.ancients.info/feac58bak.html>
2. Bordeaux, O. Monetary politics during the early Graeco-Bactrian kingdom (250–190 BCE). Chapter 23, pp. 511–512.
3. Cribb, J. The Greek Kingdom of Bactria, its Coinage and its Collapse. British Museum. p 9.
4. Glenn, S. Graeco-Bactrian and Indo-Greek Coins: A Bibliography of the Numismatics of the Hellenistic Far East. 2016. pp. 6–11.
5. Glenn, S. Graeco-Bactrian and Indo-Greek Kingdoms. p 2.
6. Litvinskii, B. A.; Pichikian, I. R. (1994). The Hellenistic architecture and art of the Temple of the Oxus. Bulletin of the Asia Institute, 8, pp. 47–66.
7. Michaels, D. S. Empires of Mystery: Collecting Greco-Baktrian Coins. Issuu. https://issuu.com/cngcoins/docs/cng_cnr_2022-01/s/14508358
8. Numismatic Guaranty Company. NGC Ancient Coins: Unusual Bactrian Portraits. October 20, 2016. <https://coinweek.com/ngc-ancients-unusual-bactrian-portraits/>
9. The Coin Galleries: Bactria: Eucratides I. <https://coinindia.com/galleries-eucratides1.html>
10. The Coin Galleries: Index of Graeco-Bactrian and Indo-Greek Coins [Catalogue of Greco-Bactrian and Indo-Greek Coins. https://coinindia.com/index-greek.html](https://coinindia.com/index-greek.html)
11. Thonemann, P. The Hellenistic World: Using Coins as Sources. Cambridge University Press, University Printing House, Cambridge CB2 8BS, UK, 2015. pp. 97–98.
12. Давлатходжа Довуди. Монетные находки на Тахти Сангине и их научное значение. Институт истории, археологии и этнографии имени А. Дониша. p 103.
13. Древняя Бактрия. Предварительные сообщения об археологических работах на юге Узбекистана. Ленинградское отделение издательства “Наука”. 1974. pp. 58–63.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 15 December 2025**Accepted:** 25 December 2025**Published:** 30 December 2025*Article / Original Paper***COGNITIVE-STYLISTIC RESEARCH OF PALINDROME IN LANGUAGES WITH DIFFERENT SYSTEMS (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN AND ENGLISH)****Shodiyeva Gulrux Nazir qizi**

Doctor of Philosophy in Philological Sciences

Abstract. This article is devoted to a comparative analysis of the phenomenon of palindromes in Uzbek and English from a cognitive-stylistic point of view. The study reveals the reflection of palindromes in the language system, their cognitive mechanisms and stylistic functions in the context of languages with different systems. The article analyzes the structural features, semantic layers and pragmatic aspects of palindromes. The results of the study show that the phenomenon of palindromes manifests itself differently depending on the typological features of the language system and has its own cognitive-stylistic possibilities in each language.

Keywords: palindromes, cognitive stylistics, comparative linguistics, Uzbek language, English language, language typology, palindromic structure, semantic symmetry.

TURLI TIZIMLI TILLARDA POLINDROMNING KOGNITIV-STILISTIK TADQIQI (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)**Shodiyeva Gulrux Nazir qizi**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida polindrom hodisasini kognitiv-stilistik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot polindromlarning til tizimida aks etishi, ularning kognitiv mexanizmlari va stilistik funksiyalarini turli tizimli tillar kontekstida ochib beradi. Maqolada polindromlarning strukturaviy xususiyatlari, semantik qatlamlari va pragmatik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, polindrom hodisasi til tizimining tipologik xususiyatlariga bog'liq holda turlicha namoyon bo'ladi va har bir tilda o'ziga xos kognitiv-stilistik imkoniyatlarga ega.

Kalit so'zlar: polindrom, kognitiv stilistika, qiyosiy tilshunoslik, o'zbek tili, ingliz tili, til tipologiyasi, palindromik struktura, semantik simmetriya.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilning kognitiv-stilistik jihatlari tadqiqi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Til hodisalarini kognitiv jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Polindrom hodisasi – so'z, ibora yoki matnning chapdan o'ngga va o'ngdan chapga bir xil o'qilishi – tilning universal xususiyatlaridan biri bo'lib, turli tillarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi [1]. Polindromlar nafaqat til o'yinining qiziqarli shakli, balki tilning strukturaviy imkoniyatlari, kognitiv mexanizmlari va ijodiy potensialini aks ettiruvchi muhim lingvistik obyekt hisoblanadi.

Turli tizimli tillarda polindromlarning tadqiqi qiyosiy tilshunoslik va tipologik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbek tili agglutinatив tillar oilasiga mansub bo'lib, qo'shimchali tuzilishga ega, ingliz tili esa analitik-flektiv tuzilmaga ega bo'lgan tildir [2]. Bu tipologik farqlar polindromlarning shakllanishi va funksiyalashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek tilida polindromlar asosan morfologik struktura va qo'shimchalar tizimi orqali yaratilsa, ingliz tilida leksik birliklar va so'z tartibi muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu farqlarni kognitiv-stilistik nuqtai nazardan tahlil qilish va polindrom hodisasining har iki tilda namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Polindromlarning kognitiv tadqiqi inson ongining simmetriyani idrok etish, xotira mexanizmlari va til yaratish jarayonlarini tushunish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi [3]. Simmetriya prinsipi insoniyat madaniyatining turli sohalarida – san'at, arxitektura, musiqa va adabiyotda – keng qo'llaniladi va bu prinsipning tilda namoyon bo'lishi kognitiv mexanizmlarning universal tabiati haqida dalolat beradi. Stilistik jihatdan polindromlar matnda maxsus ta'sir yaratish, diqqatni jalb qilish va estetik funksiyalarni bajarish vositasi sifatida xizmat qiladi. Turli janrlarda – she'riyatda, nasrda, reklama matnlarida va OAV materiallarida – polindromlardan foydalanish ularning stilistik salohiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, o'zbek tilshunosligida polindromlarning maxsus tadqiqi hali yetarli darajada amalga oshirilmagan va bu yo'nalishdagi ilmiy ishlar juda kam [4]. Ikkinchidan, qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan turli tizimli tillarda polindromlarning kognitiv-stilistik xususiyatlarini tahlil qilish zamonaviy lingvistikaning dolzarb vazifalaridan biridir. Uchinchidan, globallashtirish sharoitida tillararo aloqalar kuchayib bormoqda va har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi kognitiv tilshunoslik, stilistika va qiyosiy tipologiya yo'nalishlarining uyg'unlashuviga asoslanadi. Tahlil jarayonida deskriptiv, qiyosiy-tipologik va kognitiv-diskursiv metodlardan foydalanildi. Material sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy adabiyot, zamonaviy media tekstlari va internet resurslaridan olingan polindrom misollar tanlab olindi. Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi: polindromlarning strukturaviy tasnifi, semantik tahlil, kognitiv mexanizmlarni aniqlash va stilistik funksiyalarni ochib berish.

Polindromlar tadqiqotining nazariy asoslari rus tilshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan. V.P. Burenko o'z tadqiqotida polindromlarning lingvistik tabiatini va ularning til tizimidagi o'rnini ko'rib chiqdi [5]. Muallif polindromlarni strukturaviy, semantik va funksional jihatdan tasniflab, ularning yaratilish mexanizmlarini tahlil qildi. Polindromlar nafaqat fonologik yoki grafik simmetriya, balki kognitiv jarayonlarning mahsuli ekanligi ta'kidlandi. Tilning strukturaviy imkoniyatlari polindromlarning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi va har bir til o'zining tipologik xususiyatlariga mos ravishda polindromik tuzilmalar yaratish imkoniyatiga ega.

I.R. Galperin stilistika sohasidagi fundamental asarida tilning ifoda vositalari va stilistik usullarni tahlil qilib, simmetriya prinsipining stilistik ta'sirini ko'rsatdi [6]. Polindromlar matnda maxsus ekspressivlik yaratish vositasi sifatida qaralgan va ularning pragmatik funksiyalari ochib berilgan. Matnning strukturaviy tashkil etilishida takrorlanish va simmetriya muhim rol o'ynaydi, bu esa o'quvchining diqqatini jalb qilish va mazmunni ta'kidlash imkonini beradi. Stilistik nuqtai nazardan polindromlar nafaqat fonetik yoki grafik jihatdan, balki semantik va sintaktik darajada ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

E.S. Kubryakova kognitiv tilshunoslik asoslarini ishlab chiqqan va tilning kognitiv mexanizmlarini ochib bergan [7]. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, til hodisalari inson ongining kategoriyalash, konseptualizatsiya va ma'no yaratish jarayonlari bilan chambarchas

bog'liq. Polindromlarning kognitiv tahlili inson xotirasining xususiyatlari, simmetriyaga moyillik va til yaratish jarayonlarining mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Kognitiv stilistika nuqtai nazaridan polindromlar til tizimining ijodiy potensialini va inson ongining simmetriyani idrok etish qobiliyatini namoyon etadi.

O'zbek tilshunosligida A. Nurmonov va Sh. Rahmatullayevning asarlari til strukturasi va tipologik xususiyatlarni tadqiqotiga bag'ishlangan [8]. Agglutinatив tillar uchun xos bo'lgan qo'shimchalar tizimi polindromlarning yaratilishida maxsus rol o'ynaydi. O'zbek tilida qo'shimchalarning ketma-ketligi va ularning fonologik tarkibi polindromik tuzilmalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Morfologik struktura va so'z yasalishi tamoyillari har qanday til o'yinining, shu jumladan polindromlarning asosini tashkil etadi.

Ingliz tilida polindromlar tadqiqotiga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida M. Gardner va B. Bergerson ishlarini alohida ta'kidlash lozim [9]. Ular polindromlarning tarixiy rivojlanishi, turlari va yaratilish tamoyillarini batafsil tahlil qildilar. Ingliz tilida polindromlar asosan leksik darajada yaratiladi va so'z tartibi muhim ahamiyatga ega. Analitik til sifatida ingliz tilida so'z shakli o'zgarmaydi yoki minimal o'zgaradi, bu esa polindromlarning boshqacha strukturaviy xususiyatlarga ega bo'lishiga olib keladi. Ingliz tilida klassik polindrom misollari "A man, a plan, a canal: Panama" yoki "Madam, I'm Adam" kabi iboralar bo'lib, ular leksik birliklar va so'z tartibining o'zaro bog'lanishi orqali yaratiladi.

Qiyosiy tipologiya nuqtai nazaridan tillarning strukturaviy farqlari polindromlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. B. Comrie tillar tipologiyasi bo'yicha tadqiqotlarida tillarning universal va spesifik xususiyatlarini tahlil qildi [10]. Agglutinatив va analitik tillar o'rtasidagi farqlar morfologik, sintaktik va fonologik darajada namoyon bo'ladi va bu farqlar polindromlarning yaratilish mexanizmlariga bevosita ta'sir qiladi. O'zbek tilida so'z negizi va qo'shimchalarning aniq ajratilishi polindromik tuzilmalarni yaratishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi, chunki qo'shimchalarning ketma-ketligini teskarisiga aylantirish grammatik jihatdan noto'g'ri shakllarni hosil qilishi mumkin.

Polindromlarning semantik jihatlari ham muhim tadqiqot yo'nalishidir. Ko'pchilik polindromlar formal simmetriyaga ega bo'lgan holda, semantik jihatdan mantiqiy yoki ma'noli bo'lmazligi mumkin. Biroq, ba'zi hollarda polindromlar chuqur ma'noga ega bo'ladi va bu ularning badiiy qiymatini oshiradi. Semantik polindromlar yaratish tilning leksik boyligini va muallif mahoratini talab qiladi. Kognitiv nuqtai nazaridan, semantik jihatdan to'g'ri polindromlarning yaratilishi va idrok etilishi murakkab kognitiv jarayonlarni talab qiladi, chunki inson ongining bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishda – chapdan o'ngga va o'ngdan chapga – ma'noni qayta ishlash qobiliyati cheklangan.

Natijalar va muhokama. O'zbek tilida polindromlarning strukturaviy tahlili shuni ko'rsatdiki, fonetik darajada ba'zi so'zlar palindromik xususiyatga ega: "non", "qoq", "dod", "ko'k". Bu so'zlar o'z tabiatiga ko'ra simmetrik tuzilishga ega va chapdan o'ngga hamda o'ngdan chapga bir xil o'qiladi. Biroq, o'zbek tilining agglutinatив xususiyati tufayli qo'shimchalar qo'shilganda polindromik xususiyat yo'qoladi. Masalan, "non" so'ziga "-ni" qo'shimchasi qo'shilganda "nonni" shaklida hosil bo'ladi va bu shakl endi polindrom emas. Bu holat o'zbek tilida polindromlarning asosan leksik darajada, oddiy so'zlar shaklida mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida ibora darajasida polindrom yaratish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Qo'shimchalar tizimi va so'z tartibining nisbatan erkin bo'lishi polindromik iboralarni yaratishda imkoniyatlar yaratsa-da, grammatik to'g'rilikni saqlash qiyin. Biroq, badiiy

matnlarda va zamonaviy internet madaniyatida eksperimental polindromlar yaratilmoqda. Masalan, "Ana, mana!" yoki "Ota!" kabi qisqa iboralar polindromik xususiyatga ega bo'lishi mumkin, ammo ularning grammatik to'g'riligi va semantik qiymati har doim ham aniq emas. Bu holat shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida polindromlar yaratish uchun grammatik qoidalardan ma'lum darajada chetga chiqish zarur bo'lishi mumkin.

Ingliz tilida polindromlar ancha rivojlangan va keng tarqalgan. Leksik darajada ko'plab polindromik so'zlar mavjud: "level", "civic", "radar", "rotor", "kayak", "refer", "madam". Bu so'zlar ingliz tilining morfologik soddaligi va so'z shakllarining o'zgarmasligi tufayli polindromik xususiyatni saqlaydi. Analitik til sifatida ingliz tilida so'z shaklining doimiyliigi polindromlar yaratish uchun qulay shart yaratadi. Ibora va jumla darajasida ham ingliz tilida ko'plab klassik polindromlar mavjud: "Never odd or even", "Was it a car or a cat I saw?", "A Santa at NASA". Bu misollar ingliz tilida polindromlar yaratishning ancha keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kognitiv jihatdan polindromlarning idrok etilishi va yaratilishi murakkab mental jarayonlarni o'z ichiga oladi. Insonning simmetriyaga nisbatan qobiliyati va moyilligi polindromlarni tez tanib olish va eslab qolish imkonini beradi. Eksperimental psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, simmetrik tuzilmalar inson xotirasida yaxshiroq saqlanadi va tezroq qayta ishlanadi. Polindromlarning kognitiv salohiyati shundaki, ular ongning ikki tomonlama qayta ishlash mexanizmlarini faollashtiradi – chapdan o'ngga va o'ngdan chapga bir vaqtning o'zida. Bu jarayon ongning lineer bo'lmagan, ko'p yo'nalishli fikrlash qobiliyatini namoyish etadi.

Stilistik jihatdan polindromlar turli funksiyalarni bajaradi. Badiiy adabiyotda ular ekspressivlik yaratish, o'quvchining diqqatini jalb qilish va matnning estetik qiymatini oshirish uchun ishlatiladi. Zamonaviy reklamada polindromlardan foydalanish brendning esda qolishi va ahamiyatini ta'kidlash maqsadida qo'llaniladi. OAV va internet matnlarida polindromlar kulgili yoki diqqatni tortuvchi element sifatida ishlatilib, auditoriya bilan muloqotni kuchaytiradi. Polindromlarning stilistik ta'siri ularning noodatiy tabiati va simmetrik tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, matnda maxsus ta'sir yaratadi.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlandiki, o'zbek va ingliz tillarida polindromlarning shakllanishi va funksiyalari til tipologiyasiga bog'liq holda sezilarli farqlarga ega. O'zbek tilida polindromlar asosan leksik darajada, oddiy so'zlar shaklida uchraydi va ularning soni nisbatan cheklangan. Ingliz tilida esa polindromlar nafaqat leksik, balki ibora va jumla darajasida ham keng tarqalgan va murakkab tuzilmalarga ega. Bu farqlar har ikkala tilning grammatik tuzilishi, morfologik xususiyatlari va so'z tartibining xususiyatlari bilan izohlanadi. Agglutinatativ tillar uchun qo'shimchalar tizimi polindrom yaratishda cheklovlar yaratsa, analitik tillarda so'z shakllarining barqarorligi keng imkoniyatlar yaratadi.

Polindromlarning pragmatik funksiyalari tillararo umumiylikka ega. Ikkala tilda ham polindromlar diqqatni jalb qilish, xotirda yaxshi saqlanish va estetik ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega. Biroq, har bir til o'z madaniy va til kontekstida polindromlarni turlicha qabul qiladi. O'zbek tilida polindromlar hali yetarli darajada rivojlanmagan va asosan eksperimental xarakterga ega bo'lsa, ingliz tilida polindromlar uzoq tarixga ega va adabiy an'analarning bir qismi hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va internet madaniyati ikkala tilda ham polindromlarning yangi shakllarini yaratish va tarqatish imkoniyatini bermiqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni berish mumkin. Polindrom hodisasi universal til hodisasi bo'lib, turli tillarda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. O'zbek va ingliz tillarida polindromlarning strukturaviy, kognitiv va stilistik xususiyatlari til tipologiyasi bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tilining agglutinatib tabiati polindromlar yaratishda ma'lum cheklovlar yaratsa-da, leksik darajada polindromik so'zlar mavjud va ularning soni kelajakda til o'yinlari va ijodiy yondashuvlar orqali oshishi mumkin.

Ingliz tilida polindromlar rivojlangan va keng tarqalgan hodisa bo'lib, leksik, ibora va jumla darajasida murakkab tuzilmalar yaratish imkoniyatiga ega. Kognitiv jihatdan polindromlar inson ongining simmetriyani idrok etish va qayta ishlash qobiliyatini aks ettiradi. Stilistik funksiyalari jihatidan polindromlar ikkala tilda ham ekspressivlik yaratish, diqqatni jalb qilish va estetik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'zbek va ingliz tillarida polindromlarning tadqiqi har ikkala tilning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi va tillararo universal hamda spetsifik jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Kelajakda o'zbek tilida polindromlar yaratish va ularni turli janrlarda qo'llash istiqbollari mavjud. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va internet madaniyati polindromlarning yangi shakllarini yaratish va tarqatish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u o'zbek tilshunosligida polindromlarning birinchi bor kognitiv-stilistik nuqtai nazardan qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Amaliy jihatdan tadqiqot natijalari til o'qitish, tarjimashunoslik, badiiy ijodiyot va reklama sohasida qo'llanilishi mumkin. Polindromlarning o'rganilishi tilning ijodiy potensialini ochib beradi va til o'yinlari orqali tilga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi. Kelajakda tadqiqotni chuqurlashtirish uchun boshqa turkiy tillar va dunyo tillari bilan qiyosiy tahlil olib borish, polindromlarning psixolingvistik tadqiqini amalga oshirish va zamonaviy media matnlarida ularning funksiyasini maxsus o'rganish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Burenko V.P. Palindrom kak lingvisticheskoe yavlenie // Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 9. Filologiya. – M., 2010. – № 3. – S. 45-58.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining tipologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2008. – 256 b.
3. Kubryakova E.S. Yazyk i znanie: Na puti polucheniya znaniy o yazyke. – M.: Yazyki slavyanskoy kultury, 2004. – 560 s.
4. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tili nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 428 b.
5. Burenko V.P. Strukturno-semanticheskie osobennosti palindromov v russkom yazyke. – M.: MAKSPress, 2012. – 168 s.
6. Galperin I.R. Stylistics. – M.: Higher School Publishing House, 1977. – 332 p.
7. Kubryakova E.S. V poiskah sushchnosti yazyka: Kognitivnye issledovaniya. – M.: Znaki, 2012. – 208 s.
8. Nurmonov A. O'zbek tilining morfologik tuzilishi. – Toshkent: Universitet, 2007. – 312 b.
9. Gardner M. The Magic of Lewis Carroll. – New York: Simon & Schuster, 2009. – 208 p.
10. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – 264 p.

Received: 15 December 2025

Accepted: 25 December 2025

Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

COMPARATIVE STUDY OF GEONYMS IN UZBEK, ENGLISH AND KOREAN LANGUAGES

Khusanova Gulasal Shuhratjon qizi

Senior Lecturer,

Department of English Language Teaching Methods,

Fergana State University,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Abstract. This article is devoted to the study of linguistic features of geonyms in Uzbek, English and Korean languages in a comparative aspect. The research analyzes structural, semantic and ethnolinguistic aspects of geographical names existing in three languages. The sources of geonym formation, their lexico-semantic grouping, morphological structure, as well as national-cultural features are examined through comparative method. The results show that the geonymic system of each language has its own characteristics, which reflect the historical development of the respective people, geographical environment and cultural traditions. The research results have theoretical significance in the fields of onomastics, comparative linguistics and linguoculturology.

Keywords: geonym, toponymy, comparative linguistics, Uzbek language, English language, Korean language, geographical names, ethnolinguistics, onomastics, lexico-semantic analysis.

O'ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARIDAGI GEYMONIMLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: g.xusanova@pf.fdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek, ingliz va koreys tillaridagi geymonimlarning lingvistik xususiyatlarini chog'ishtirma aspektda o'rganishga bag'ishlangan. Geymonimlarning paydo bo'lish manbalari, leksik-semantik guruhlanishi, morfologik tuzilishi hamda milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy usulda ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har bir tilning geymonimik tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular tegishli xalqning tarixiy taraqqiyoti, geografik muhit va madaniy an'analarini aks ettiradi. Tadqiqot natijalari onomastika, qiyosiy tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalarida nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: geymonim, toponimika, chog'ishtirma tilshunoslik, o'zbek tili, ingliz tili, koreys tili, geografik nomlar, etnolingvistika, onomastika, leksik-semantik tahlil.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda onomastika sohasining alohida yo'nalishi bo'lgan toponimika tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Geografik nomlar yoki geymonimlar nafaqat ma'lum hududlarni nomlash funksiyasini bajaradi, balki millat tarixini, madaniyatini, dunyoqarashini hamda tabiat bilan munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Turli tillardagi geymonimlarni qiyosiy tadqiq etish lingvistik universallar va milliy o'ziga xosliklarni aniqlashga imkon beradi, shu bilan birga tillarning tipologik xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi [1]. O'zbek, ingliz va koreys tillari turli til oilalariga mansub bo'lib,

ularning geymonimik tizimlari ham strukturaviy, ham semantik jihatdan sezilarli farqlarga ega. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning geografik nomlari asosan turkiy, fors-tojik va arab manbalariga borib taqaladi. Ingliz tili german tillar guruhiga kiradi va uning toponimikasida kelta, anglo-sakson, skandinav va norman-fransuz qatlamlari kuzatiladi. Koreys tili esa alohida til oilasini tashkil etib, uning geymonimik tizimida xitoy-koreys (hanja) va xol koreys elementlar o'zaro ta'sir qiladi [2].

12. West, M. I. (2011). Roald Dahl’s childhood writings and the construction of the child narrator. In J. H. Wintle & D. Fix (Eds.), *A critical companion to Roald Dahl* (pp. 67–84). McFarland.
13. Zunshine, L. (2022). How memories become literature. *SubStance*, 51(3), 92 -114.



13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SIENCE

Received: 15 December 2025

Accepted: 25 December 2025

Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

CONTENT OF COMPETENCIES ACQUIRED BY STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION

Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi

Termez State Pedagogical Institute

Faculty of Preschool and Primary Education

Teacher of the Department of Preschool Education

Abstract. In this article, we will get acquainted with the reasoning that among the existing mechanisms for improving pedagogical education in the educational process, the design of curricula in special and general professional disciplines by enriching curricula based on partial curricula aimed at forming the individual characteristics of students in the educational process, adaptive competencies to changing educational requirements, and their further development, is a method (or mechanism) that provides an effective result in the short term.

Keywords: education, process, programs, design, competencies, higher education, student.

PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR EGALLAYDIGAN KOMPETENSIYALAR MAZMUNI

Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

E-mail: saydillayevamehrinaz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida pedagogik ta'limni takomillashtirishning mavjud mexanizmlari orasida maxsus va umumkasbiy fanlarning o'quv dasturlarini ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning alohida xususiyatlarini, o'zgaruvchan ta'limiy talablarga moslashuvchan kompetensiyalarini shakllantirish hamda davomli rivojlantirishga qaratilgan parsial o'quv dasturlari asosida boyitish orqali loyihalash qisqa muddatda samarali natija beradigan usul (yoki mexanizm) ekanligi borasidagi mulohazalar bilan tanishamiz.

Kalit so'zlar: ta'lim, jarayon, dasturlar, loyihalash, kompetensiya, oliy ta'lim, talaba.

Kirish. Aytish lozimki, ta'lim jarayoni orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini hosil qiluvchi alohida elementlarning qaysi biriga ko'proq urg'u berish lozimligi xususidagi masalani hal etish uchun pedagogik ta'limning strukturasini aniqlashtirish, mazkur strukturadagi qaysi elementni ko'proq rivojlantirish borasidagi mavjud qarashlar va tendensiyalarni, bo'lajak o'qituvchi va pedagoglar egallaydigan kompetensiyalarni o'rganib chiqishimiz lozim bo'ladi. Bu zarurat esa ta'lim jarayonida parsial o'quv dasturlarini loyihalashtirish orqali pedagogik ta'lim metodikasini takomillashtirish vazifasini hal etish uchun pedagogik ta'limda uning qaysi strukturasiga

urg'u berish bilan bog'liq ustuvor tendensiyalardan nazariy asos sifatida foydalanishimizni taqozo etadi. OTMdagi pedagogik ta'limni tashkil etilish tamoyillari, tartiblariga va o'z ichki tuzilmasiga ega bo'lgan majmuaviy pedagogik jarayon o'laroq, mazkur tuzilmani hosil qiluvchi komponentlarning o'zaro aloqadorligi bilan xossalarnadi. Pedagogik ta'limning mazmun-mundariyasi haqida gap ketar ekan, bunda doimiy va o'zgaruvchi modulli majmualarni o'z ichiga oluvchi komponentlar mavjudligi ko'rsatib o'tiladi. (1.2)

Pedagogik ta'limning o'zgaruvchi komponentlariga bo'lajak o'qituvchi va pedagogning ixtisosligi, qiziqish doirasi, shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasiga bog'liq bo'lgan modulli fanlar majmuasini kiritish mumkin. Buning uchun eng avvalo OTM talabasi o'z kasbiy faoliyatidan kelib chiqib bir qator kompetensiyalarni egallashi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, ta'lim oluvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda bir qator kompetensiyalar shakllantiriladi. Mazkur kompetensiyalar ta'lim jarayonida pedagogik ta'lim orqali talabalarda shakllantiriladi. (1.1-jadvalga qarang) [1.3]:

Tayanch kompetensiyalar

№	Tayanch kompetensiyalar	Tayanch kompetensiyalarning mazmuni
1.	Kasbiy kompetensiya	talabalar o'z kasbini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Bu, masalan, o'qituvchilik faoliyati uchun pedagogik metodlarni, darslik materiallarini tayyorlashni o'z ichiga oladi.
2.	Shaxsiy kompetensiya	talabalar o'z shaxsiy rivojlanishini boshqarish, o'z-o'zini baholash va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini egallashlari kerak. Bu erkin va samarali kommunikatsiya, vaqtni boshqarish, stressga bardoshlik kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.
3.	Ijtimoiy kompetensiya	talabalar jamoada ishlash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, guruhda ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishi zarur
4.	Pedagogik kompetensiya	pedagogik jarayonlarni samarali tashkil qilish, talabalarni o'qitish, darslarni rejalashtirish va talabalarga individual yondashuvni amalga oshirish kabi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi
5.	Ma'naviy va axloqiy kompetensiya	talabalarga axloqiy qadriyatlarni, adolat va hurmatga asoslangan munosabatlarni o'rgatish, shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatni tushunish.
6.	Innovatsion kompetensiya	zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash, yangi o'qitish uslublari va ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Pedagogik ta'lim jarayonida talabalar egallaydigan kompetensiyalar mazmunini o'rganishdan avval "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Adabiyotlarni o'rganish natijalari ko'rsatishicha: birinchidan, "kompetentlik" tushunchasining falsafiy va psixologik lug'atlardagi talqini mavjud emas [1.4] ikkinchidan, ba'zi mualliflar psixologik-pedagogik adabiyotlarda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarini ajratmaydilar [1.5].

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini farqlash uchun mazkur tushunchalar o'zbek tili atamalar lug'atida, boshqaruv bo'yicha atamalar lug'ati va

boshqalarda qanday ifodalanganligini tahlil qilamiz. «Kompetensiya» tushunchasi lug'atlarda quyidagicha talqin etiladi: bu muayyan organ yoki mansabdor shaxsning qonun bilan, mazkur organ ustavi yoki boshqa qoidalar bilan belgilangan vakolatlari (huquq va majburiyatlari) yig'indisi hisoblanadi. [1.6]; Mazkur ta'riflardan ko'rinib turganidek, kompetensiya tushunchasi turlicha talqin etiladi. B.Xodjayevning fikricha kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali birga tashkil qila olishiga tayyorligi boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarini yecha olishga oid shaxsiy qobiliyatidir [1.6].

Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda, ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, bizning fikrimizcha ham, kompetensiya insonga nafaqat kasbiy, balki uning butun hayotiy faoliyati davomida kerak bo'ladigan qobiliyatlar yig'indisidir. Ularni to'la egallamay turib, hech bir mutaxassis o'z pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli yurita olmaydi. Kompetensiyaning turlarini tasniflashga doir xilma xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

-Maxsus kompetensiya – yetarli yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish qobiliyati;

-Ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o'z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

-Shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

-Individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo'llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o'sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorgarlik;

-Tayanch kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko'nikmalari [1.8].

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy talablari pedagogik ta'lim oldiga yangi maqsadlarni qo'yadi, yangi qadriyatlarni aktuallashtiradi (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini aktuallashtirish). Ularning asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqiladi. U S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin, V.V.Davidovlarning ishlarida [1.9] ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy va faoliyatli yondashuvlarga asoslanadi. A.G.Asmolov, V.P.Zinchenkolarning zamonaviy tadqiqotlari mazkur konsepsiyaaning umummetodologik mohiyatini ochib beradi, V.A.Bolotov va boshqalar esa, uni tashkiliy-boshqaruv darajasida hal etadilar [1.10].

Jamiyatdagi zamonaviy vaziyat, shuningdek, pedagogik ta'limni tashkil etish va boshqarish tajribasi ta'lim tizimining rivojlanishi va mustahkamligining asosiy yo'li – bu har bir ta'lim jarayoni ishtirokchisining raqobatbardoshligini ta'minlash ekanligini ko'rsatadi.

Raqobatbardoshlikning asosi ta'lim sifati hisoblanadi. Biz pedagogik ta'limni takomillashtirishning asosiy mexanizmlari mohiyatini oydinlashtirmoqchi ekanmiz, ularni muayyan tuzilmaga ega bo'lgan tizimning tarkib hosil qiluvchi elementlari sifatida qabul qilamiz, binobarin, pedagogik ta'limni o'rganishga tizimli yondashuvni negizli metodologiya o'laroq joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Hozirgi ta'lim tizimida pedagogik ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar metodologik asos bo'lib tizimli yondashuv hisoblanadi. Pedagogik ta'lim jarayoni tizimlarning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri mexanizmini ochib beradi, asosiy vazifani – ta'lim sifatini boshqarishga radikal ta'sir etishning ijobiy omili sifatidagi tizimli sifatlardan foydalanishni amalga oshirish maqsadida tizimlarning manbalari va cheklovchilarining rivojlanishini ko'rsatadi.

V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra: «tizimli yondashuv – bu tizimli obyektlar, ularning amal qilishi va rivojlanishi qonunlarining tuzilishining to'liq tavsifi bilan bog'liq yondashuv» Oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonlarini tizimli yondashuv asosida kirish, maqsadlar, vazifalar; ish natijalari, shuningdek, jamoa, ota-onalar, talabalar, tashqi muhit bilan qayta aloqalar tizimini nazarda tutadi. Innovatsion jarayonning mohiyatini, ta'lim tizimini sifatli yangilashga uning ta'sirini kengroq ochib berilishi uchun uning chegaralarini, “pedagogik tizim” tushunchasi bilan bog'liqligini aniq tasavvur qilish kerak. Pedagogik tizim eng yuqori tartibdagi tizim sifatida ta'lim tizimiga kirishi umum tan olingan (O.E.Lebedev, A.I. Subetto va boshqalar).

B.S.Gershunskiy pedagogik tizimni pedagogik ta'sirning obyekti, subyekti, mazmuni, vositalari, maqsadi, natijalari sifatidagi elementlarining o'zaro aloqasi sifatida ta'riflagan [1.11].

B.S.Lazarev boshqarishning pedagogik tizimini “maxsus tarzda bir-biri bilan bog'langan kirish, o'quv-tarbiya jarayoni va ta'lim natijalarining insoniy, moddiy-texnik, axborot, me'yoriy-huquqiy va boshqa komponentlari” sifatida qaraydi

Zamonaviy ta'limning pedagogik tizimi va innovatsion jarayonini o'zaro bog'liq ko'rib chiqish nuqtai nazaridan, tizimli yondashuv, avvalo, tizimning integrativ xususiyatlarini, ya'ni umumiyliги uning sifatini belgilaydigan sifatlarni (B.S.Lazarev, T.I.Shamova, P.I.Tretyakov, N.P.Kapustin), ko'rib chiqishga yo'naltirishini hisobga olish muhimdir. D.M.Polev va D.Sh.Matros bizning tadqiqot ishimiz uchun juda muhim bo'lgan fikrni keltiradilar, unga asosan, ixtiyoriy obyekt, jarayonni ko'rib chiqishning tizimlilikini uni yangi sifatli holatga ko'chirish bo'yicha xatti-harakatlarning maqsadga yo'nalganligini ta'minlaydi

Mazkur qoida ta'lim jarayoniga to'liq taalluqli bo'lib, uning OTMdagi ta'lim sifatiga ta'siri borasidagi samaradorligi ko'p jihatdan uning maqsadlarining tizimli xususiyatiga bog'liqdir. OTMdagi ta'lim sifatini optimallashtirish ostida biz, ma'lum ta'lim muhiti sharoitlarida ta'limning maksimal mumkin bo'lgan sifatiga erishishni tushunamiz.

«Pedagogik tizim» va «innovatsion tizim» tushunchalarining bog'liqligini tushunishda muayyan qiyinchiliklar mavjuddir. B.S.Lazarev ta'limning innovatsion tizimini quyidagicha ta'riflaydi «...pedagogik tizimga yangiliklarni kiritishni ta'minlovchilarning barchasi, ya'ni innovatsion jarayon», pedagogik tizimni esa – «ishlashini ta'minlovchilarning barchasi».


Keltirilgan ko'rsatkichlar, bir tomondan, boshqarish toifalari, boshqa tomondan esa, innovatsion tizimning komponentlari hisoblanadi. Biz barqaror va innovatsion jarayonlarning taqqoslanishining mazkur sxemasini ayrim aniqlashtirishlar bilan qabul qilish mumkin deb hisoblaymiz.

Natijalar va muhokama. Mualliflar ko'rsatib o'tganlaridek, barqaror jarayonda qisqa muddatli rejalashtirish, innovatsion jarayonda esa – tuzatishlar kiritish imkoniyati

bilan uzoq muddatli rejalashtirish mumkin. Biz barqaror jarayon, shuningdek, uzoq muddatli istiqbol uchun rejalashtiriladi, deb hisoblaymiz. Jarayon ishtirokchilarining manfaatlarining mos tushishishi darajasi, bizning fikrimizcha, jarayon turiga bog'liq bo'lmaydi.

Bizning tadqiqot ishimizda jarayon ishtirokchilari qiziqishlarining mos tushishi darajasiga bog'liqlik o'zgaruvchan kattalik ekanligini aniqladik. Uning barqaror yoki an'anaviy jarayonda namoyon bo'lish darajasi muayyan vaqt chegaralariga ega, mazkur davr hamda ichki va tashqi muhitning o'zgaruvchi omillariga ko'ra istiqboldagi aniq maqsadlarga bog'liq. Tadqiqot ishimiz doirasida biz innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ta'lim muhitining xususiyatlari inobatga olinmasligi mumkin emasligi to'g'risidagi xulosaga keldik. Turli, jumladan, falsafiy jihatlardan ta'lim muhiti tushunchasini tadqiq etish, shuningdek, ta'lim muhitida kechadigan jarayonlarni modellashtirish, loyihalash, ekspertizadan o'tkazish va kompleks tahlil qilinishi I.S.Yakimanskaya ishlarida kuzatishimiz mumkin. Quyidagi modul orqali bo'lajak o'qituvchi pedagoglarni tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning tizimli yondashuvini ko'rishimiz mumkin.(1.9-jadval).

1.9-jadval – Pedagogik ta’lim jarayoni orqali talabalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning tizimli yondashuvi



Hamonoki, OTM talabalarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish shu bilan bir qatorda pedagogik ta'limni takomillashtirish uchun zarur bo'ladigan bilimlar majmuasini aniq bir tizim sifatida yuzaga chiqarish va bu jarayonga ilmiylik nuqtai nazaridan yondashishni amalga oshirmoqchi ekanmiz, mazkur masalaga mufassalroq to'xtalib o'tishimiz zarur bo'ladi. Nazariy va metodologik jihatdan pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq hisoblangan bilimlarni tizim sifatida umumlashtirishni uchta muhim yo'nalishda amalga oshirish mumkin deb qaraladi [1.12.].

Birinchisi – jamlash orqali umumlashtirish bo'lib, bu yo'nalishda amal qilinadigan asosiy shartlardan biri ta'lim jarayonini bo'lajak o'qituvchilar tayyorlashda pirovard maqsad hisoblanadigan hodisa sifatida yaxlit ko'rib chiqish va bu hodisani hosil qiluvchi komponentlarni uning ichida kechuvchi jarayonlar deb qabul qilishdan iboratdir. Ta'lim jarayoni hodisa deb qaraladigan bunday umumlashtirishda pedagogik ta'limning zarur darajasini ta'minlovchi bilimlar tizimida maqsadlarning umumiyligi, har bir o'quv fanining mavjud tuzilmani rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi komponent sifatida qaralishi, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tuzilmasini mukammallashtirish vazifasining aniq tamoyillar asosida bajarilishi, kasbiy-pedagogik ta'lim mazmun-mundarijasining o'qituvchi tomonidan boyitib borilishi, pedagogik ta'lim sifatining o'qitish metod, shakl, vosita va usullaridan tashqari, o'qituvchi kreativligining natijasi sifatida qaraladigan o'quv dasturlarining tarkibi va xossalari kabi elementlarga urg'u berish pedagogik ta'limni rivojlantirishning muhim sharti sanaladi Ikkinchisi – bilish ob'ektining kengayib borishini nazarda tutuvchi umumlashtirish bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonining kasbiy va maxsus fanlar o'rganiladigan bosqichida ishlab chiqiladigan dasturlar uchun umumta'lim fanlarining dasturlari hamda umumiy o'rta ta'limning zamonaviy talablarga moslashib boruvchi o'quv dasturlarining umumlashtirilgan variativ namunasi asos bo'lib xizmat qilishini nazarda tutadi. Ya'ni OTMlarda bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashda pedagogik fanlarning dasturi ishlab chiqilish jarayonida umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda ta'lim oluvchilarga qo'yiladigan davlat talablaridan kelib chiqiladi va mazkur talablarning bajarilishini ta'minlovchi pedagogik va didaktik shart-sharoitlar inobatga olinadi. Bunday umumlashtirish OTMlarda bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlash tizimining rivojlanishi umumta'lim maktablari o'quvchilariga ta'lim berish tizimiga muvofiq ravishda uzviy rivojlanib borish qonuniyatlarini yuzaga chiqaradi Uchinchisi – tashxisli bashoratlarga asoslanib umumlashtirishdir: bunda OTMda bo'lajak o'qituvchilar-pedagoglarni tayyorlash tizimining rivojlanib borish qonuniyatlarini o'rganish, tizim elementlarining alohida rivojlanganlik darajasini reflektiv tahlil qilib borish va har bir elementning umumiy rivojlanishdagi parsial dastur salmog'ini aniqlash orqali ularni umumlashtirishni nazarda tutadi.

Shu tariqa, pedagogik ta'limni bo'lajak o'qituvchilar-pedagoglarni tayyorlash jarayonini o'z ichiga oluvchi tizim sifatida qarash natijasida OTMlarda o'qitishning ilmiy nazariyasiga asos bo'ladigan elementlarni yuzaga chiqarish va ularni takomillashtirish metodikalarini ishlab chiqish mumkin.

OTMlarda olib boriladigan o'quv jarayonlari pedagogik ta'limning asosini tashkil etadi va bu jarayonlar pedagogik hamda didaktik jihatdan negiziy asosga ega bo'lgan, o'zaro rivojlantiruvchilik xususiyatiga ega bo'lgan funksional va strukturaviy komponentlarni o'z ichiga oladi. Binobarin, pedagogik ta'limni takomillashtirish metodikasining nazariy aspektlari haqida mulohaza yuritmoqchi ekanmiz, biz bo'lajak o'qituvchilar va pedagoglar o'zlarining kelgusidagi faoliyati uchun fundamental, maxsus, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni

o'zlashtirishlarini ta'minlaydigan OTMda pedagogik ta'limni takomillashtirishga bag'ishlangan muhim ilmiy tadqiqotlarni parsial o'quv dasturi asosida pedagogik jarayonni tashkil etish metodikasini takomillashtirishning metodologik asosi sifatida qabul qila olamiz.

Hamonoki, pedagogik ta'limni amalga oshirishga qaratilgan ta'lim jarayoni (pedagogik jarayon) – o'zida ta'lim oluvchining kasbiy rivojlanishi, releativ, regulativ, integrativ, aksiologik sifatarga ega bo'lishi, ijodiy-metodik faoliyatga tayyor bo'lishi va boshqa kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarga ega bo'lishini ta'minlovchi murakkab, ko'p qirrali va dinamik xususiyatga ega bo'lgan jarayon ekan. Bu jarayonning ichida kechuvchi, uning komponentlari, funksiyalari o'rtasidagi aloqadorliklarni hamda mazkur jarayon bilan tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va hokazo) faktorlar bog'liqliklarni o'zida mujassam etuvchi qonuniyatlarni yuzaga chiqarish va ularning pedagogik ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashtirib olish muhim vazifa sanaladi. Biz quyida pedagogik ta'lim jarayonida kechadigan qonuniyatlarni va ularning pedagogik ta'lim samaradorligiga yetkazadigan ta'sirini jadval ko'rinishida taqdim etamiz.

1.10-jadval. Pedagogik ta'lim jarayonidagi asosiy qonuniyatlarni va ularning pedagogik ta'lim samaradorligiga ko'rsatadigan ta'siri (I. Podlasiy asosida)

Pedagogik ta'limdagi asosiy qonuniyatlarni	Qisqacha tavsifi	Parsial o'quv dasturini loyihalashtirish asosida pedagogik ta'limni takomillashtirishdagi rolini oshirish
Ta'lim jarayonining dinamikligi	Talaba o'zlashtirishdagi har qanday o'zgarish unda ta'limning avvalgi bosqichlaridagi o'zlashtirish darajasiga bog'liq	Parsial o'quv dasturini loyihalash asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning vorisiylik tamoyiliga urg'u berish
Shaxs ravnaqining individualligi	Alohida talabada pedagogik mahorat komponentlari shakllanish sur'ati uning shaxs sifatidagi o'ziga xosligi, guruhdagi muhit va pedagogik ta'sir usul hamda vositalariga bog'liq	O'quv dasturida ijodiy-kreativ muhit yaratish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan usullar, metodikalarni joriy etish, kommunikativ metodlarda faolligi pastroq talabalarga e'tibor berish
Pedagogik jarayonning boshqarilish zarurati	"Sub'ekt-sub'ekt" shaklidagi munosabatlarda o'qituvchi muvofiqlashtiruvchi, kuzatuvchi, motivatsiya beruvchi, baholovchi kabi funktsiyalarni bajarishi	O'quv materiallarini o'rganishda talabalarining nutqiy, kommunikativ, ijodiy-kreativ, metodik mahoratlari yuzaga chiqishi uchun lozim bo'lgan muhit shakllantirish
Jarayon sub'ektlarini rag'batlantirish	Pedagogik jarayonning samaradorlik darajasi talabalarining o'rganish motivlari, o'qituvchi tomonidan bo'ladigan e'tiborning talaba yutuqlariga mosligi va o'z vaqtidaligi kabi faktorlarga bog'liq	O'qituvchi parsial o'quv dasturini loyihalashtirish asosida pedagogik ta'limni tashkil etishda baholash mezonlarining talaba taqdim etgan axborot, ma'lumot va faktlar sifat va hajmiga emas, balki undagi tahliliy-umumlashtirish, ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalar darajasiga asoslanishini ta'minlashi
Hissiyot, mantiq va amaliyot birligi	Talaba o'quv materialini emotsional hissiyot bilan o'rganishi, uning zaruratini mantiqiy idrok etishi va o'rganilgan BMKni amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi	Pedagogik ta'limni takomillashtirish texnologiyasi mavzuga oid qiziqarli faktlar, amaliyotga bog'liq holatlar bilan boyitilishi, talabani mulohazaga undovchi nostandart, rivojlantiruvchi topshiriqlarni o'z ichiga olishi
Ichki va tashqi faoliyat birligi	Pedagogik ta'lim jarayonining samaradorligi pedagogik ta'lim sifati bilan bir qatorda talabaning shaxsiy faolligiga ham bog'liq	Pedagogik ta'lim alohida talabaning faolligini rivojlantirish, buning uchun esa ijodiy-kreativ ta'lim muhiti yaratish hisobiga takomillashtirilishi
Muvofiqlik	Taqdim etiladigan o'quv materiallari, taqdim etilishi shakl, usul, vositalarining talaba ehtiyojlariga muvofiqligi	Pedagogik ta'limni takomillashtirishni nazarda tutuvchi metodikalar, vositalar, usul va metodlar tanlanishida guruhdagi aksariyat ko'pchilik talabalarining imkoniyatlari va ehtiyojlari inobatga olinishi

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan qonuniyatlar asosida tashkil etiladigan pedagogik ta'limda o'qituvchi o'qitishning "Bahs-munozara", "kommunikativ muhokama", "klaster", "BBB" kabi metodlaridan, "Bit-dars", "Devorsiz darslar" kabi o'quv jarayonini tashkil etish usullaridan, shuningdek, SWOT reflektiv metodi, yozma ijodiy topshiriqlardan ham foydalanishi ko'zda tutiladi. Aytish lozimki, sanab o'tilgan metodlar va o'quv jarayonini tashkil etish usullari muayyan dars mashg'ulotining turli qismlarida qo'llaniladi.

OTMdagi pedagogik jarayon talabani kelgusidagi kasbiy faoliyatiga ijodiy-metodik jihatdan tayyorlanish uchun olib boradigan o'quv-bilish va tadqiqotchilik faoliyatida o'z ichki imkoniyatlari, potensialini namoyon qilishi uchun mukammal sharoit yaratishdan iborat maqsadni nazarda tutadi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik ta'limning tub negiziy asosi sifatida qaraladigan OTMdagi pedagogik jarayon yaxlit tuzilmaviy tizim o'laroq, pedagogik ta'lim sifatini zarur darajaga ko'tarish bilan bog'liq bir qator masalalarni hal etishga xizmat qiladi. Xususan:

- bo'lajak o'qituvchi va pedagogning shaxsini shakllantirish;
- metodik bilimlarni o'zlashtirishda ijodiy-kreativlik namoyon etish;
- kelgusida o'z ta'lim oluvchilari tabiatidagi ustivor jihatlarni aniqlay bilish;
- o'quv va ta'lim-tarbiya dasturlarini ishlab chiqishda ijtimoiy voqeliklar, ilmiy tavsiyalar, metodik yangiliklar, zamonaviy ta'lim paradigmalari sharoitlarida shakllangan yangi talablarni inobatga olish va shu kabilar

Yuqorida keltirib o'tganimiz to'rtinchi tendensiyaga ko'ra, OTMlardagi pedagogik ta'lim mazmun-mundarijasida o'qitiladigan fanlar quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalar majmualarini o'z ichiga olishi lozim:

- fundamental umumilmiy, maxsus, pedagogik-psixologik va metodik bilimlarning umumlashtirilgan majmuasi;

- maxsus, psixologik-pedagogik, metodik, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarining umumlashtirilgan majmuasi;

- o'z ichiga intiluvchanlik, mavjud nazariy bilimlarni amaliy vaziyatda tezkorlik bilan qo'llay olish mahoratini, pedagogik vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qila olish, metodik bilimlarni ijodiy mahorat bilan qo'llay olish kabi malakalar oluvchi ijodiy-kreativ faoliyatning umumlashtirilgan tajribasi;

- ta'lim oluvchilar, pedagogik jamoa, ota-onalar bilan emotsional-irodaviy munosabatlarni barcha uchun samarali tarzda yo'lga qo'yish kommunikativ madaniyatning umumlashtirishgan majmuasi [1.13]. OTMlarda pedagogik ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan eng muhim tendensiyalarning qisqacha tavsifini quyidagi jadval orqali keltirib o'tamiz (qarang: 1.3-jadval).

1.11-jadval. Pedagogik ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy tendensiyalarning tavsifi

Tendensiyalar	Qisqacha tavsifi	Maqsadi va joriy etish shart-sharoitlari	Mavjud kamchiliklari	Kamchiliklarni bartaraf etish usullari
Insonparvarlik va insoniylik tamoyillarining ustivorligi	Ta'lim jarayonida jarayon subyektlarining shaxsiga e'tibor qaratiladi va ta'lim mundarijasi	Amaliy mazmundagi topshiriqlar va vazifalar salmog'ini oshirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy	Pedagogik jarayonning ilmiy-nazariy komponentlarini qisqartirish hisobiga amaliy komponentlarni	Amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'rtasidagi integrativlikni joriy etish, integratsiyaning barcha darajalaridan foydalanish

	alohida shaxs takomiliga qaratiladi	sifatlarini shakllantirish	rivojlantirish ko'zda tutiladi	
Pedagogik-psixologik fanlarning mazmunini takomillashtirish	Bo'lajak o'qituvchi va pedagoglarni kasbiy jihatdan tayyorlashda psixologik-pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalarning ustivorligi	OTM ta'lim dasturida pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi hamda kommunikativ munosabatlar tajribasini oshirishga qaratilgan qisqa muddatli kurslar tashkil etish	OTMlarda bo'lajak o'qituvchi pedagoglarni tayyorlash tizimida muddatning chegaralanganligi hamda zamonaviy fanlarning yildan yilga oshib borishi	Barcha fanlar uchun ishlab chiqiladigan o'quv dasturlarida fanlararo aloqadorlikni rivojlantirish orqali yondosh fanlarni o'qitishda nisbatan kam vaqt ichida talabning ko'proq ko'nikmalar va tajribalar egallashiga erishish
Predmetli maxsus-kasbiy tayyorlash	Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik-psixologik tayyorlashga ko'proq urg'u berish va nazariy bilimlar salmog'ini kamaytirish	OTM dasturidagi fanlarni kamaytirish, o'xshash maxsus fanlarni birlashtirish, kelgusi pedagogik faoliyat uchun ahamiyati kamroq bo'lgan fanlardan voz kechish	Talabalarni intellektual rivojlantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish maqsadida taqdim etilishi zarur bo'lgan ilmiy ma'lumotlar, nazariy bilimlar hajmi inobatga olinmaganligi	Maxsus, umumkasbiy fanlarni o'qitish dasturini ishlab chiqishda talaba o'zi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha bilim, axborot va ma'lumotlarni mustaqil axtarishi nazarda tutilishi lozim
Uch yo'nalishli rivojlantirish	Pedagogik ta'lim mazmun-mundarijasini umumnazariy, maxsus-kasbiy va maxsus fanlardan iborat etib loyihalashtirish	O'quv va ta'lim fanlari emas, tahsil davomida talabning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikma va kasbiy tajribalar majmualashtiriladi	Majmualashtirilgan bilimlarda bir-birini to'ldiruvchanlikka erishish muammo tug'diradi. o'qitish metodikasini o'rganish o'rtasida davriylik nuqtayi nazaridan nomuvofiqliklar yuzaga keladi	O'quv dasturini ijodiy yondashgan holda ishlab chiqish orqali har bir fan doirasida talabning muayyan sifatini rivojlantirish nazarda tutilishi lozim

Pedagogik ta'limni takomillashtirishga qaratilgan uch yo'nalishli rivojlantirish tendensiyada bo'lajak o'qituvchilarda kelgusidagi faoliyat uchun zarur bo'ladigan muhim sifatlarni shakllantirish uchun majmualashtiriladigan asosiy bilim, malaka, ko'nikmalar va kommunikativ mahoratlarni biz tadqiqot ishimiz maqsadlaridan kelib chiqqan holda pedagogik ta'lim komponentlari deb hisoblashimiz mumkin. Binobarin, pedagogik ta'limni takomillashtirish deganda aynan mazkur komponentlarni rivojlantirish nazarda tutiladi. OTMlardagi pedagogik ta'limning mazmun-mundarijasini loyihalashtirish aniq tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu tamoyillar quyidagilardir

1. Ta'lim mazmun-mundarijasi komponentlarining funksional yaxlitligi tamoyili: mazkur tamoyilning mohiyati shundan iboratki, pedagogik ta'limning sifatli tashkil etilishini ta'minlovchi pedagogik tizimni hosil qiluvchi barcha muhim komponentlar o'z funksiyalarini mukammal bajarishi lozim.

2. Differensiyalashning zarurligi tamoyili: unga ko'ra, ta'lim mazmun-mundarijasini loyihalashtirishda alohida fanlarning birlamchi ahamiyatini inobatga olish zarur. Bu vazifa pedagogik ta'limning sifatini zarur darajaga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etishi aniq bo'lgan fanlarning mustaqil o'quv kurslariga aylantirilishi orqali bajarilishi mumkin.

3. Ta'lim mazmun-mundarijasini integrasiyalash tamoyili: bu tamoyil talabalarga nisbatan qisqa vaqt kesimi orasida maksimum ko'proq BMK (bilim, malaka, ko'nikmalar) o'zlashtirish, shuningdek, o'rganiladigan fanlar sonini kamaytirish imkonini beradi, bunday imkoniyatga esa fanlararo aloqadorlikni rivojlantirish, ta'lim jarayoniga integrativlikning turli darajada joriy etilishi orqali erishish mumkin.

4. Ta'lim mazmun-mundarijasining vorisiylik ("zinalilik") tamoyili: unga ko'ra, OTM ta'lim dasturida o'qitilishi rejalashirilgan fanlar mazmun-mundarijasining tizimliliigi, izchilligi, o'zaro muvofiqligi, o'zaro aloqadorligi va bir-birini to'ldiruvchanlik kabi xususiyatlarga ega ekanligidir.

Aytish kerakki, pedagogik ta'lim strukturasi keltirib o'tilgan to'rtta asosiy majmuaviy bloklarning har biri alohida (o'zaro bog'liq) elementlarni o'z ichiga oladi. Biz **1.11-jadvalda** ko'rsatib o'tilgan majmuaviy bloklarning tarkibini belgilashda OTMlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash hamda pedagogik ta'lim mazmun-mundarijasiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqishimiz lozim bo'ladi. Bu talablar quyidagilardir:

1) pedagogik ta'lim strukturaviy tarkibini hosil qiluvchi majmuaviy bloklarning elementlari ta'lim turi va bosqichiga qarab belgilanadi;

2) pedagogik ta'limning majmuaviy bloklari ta'lim muassasasi joylashgan mintaqaning ijtimoiy sharoitlari, milliy qadriyatlari va pedagogik OTMlarda ta'limni tashkil etishning asosiy tamoyillariga qarab belgilanadi;

3) ta'lim mazmun-mundarijasini ishlab chiqish turli bilim sohalarining rivojlanish tendensiyalari va mazkur sohada ilmiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi;

4) bilim, malaka va ko'nikmalarning uzatib borilishida axborot hajmining optimallashtirilishi va tahsilning barcha bosqichlarida teng taqsimlanishi moslashuvchanlik va variativlik talablari inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir;

5) ta'limiy, ilmiy, kasbiy va kulturologik jihatdan umumiylikka ega bo'lgan o'quv fanlari, o'quv kurslari va majmuaviy bloklar o'rtasida integrasiyaning joriy etilishi fanlar mazmunini samarali va mahsuldor o'zlashtirishni osonlashtiradi;

6) pedagogik ta'lim mazmun-mundarijasini belgilashda o'qitishning yangi pedagogik va axborot texnologiyalari joriy etilishini inobatga olish lozim bo'ladi, negaki, aynan mazkur texnologiyalar talaba muayyan vaqt birligi ichida (yoki o'quv kursini o'zlashtirish muddati davomida) ko'proq bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkinligi nazarda tutiladi, bu esa o'z navbatida ta'lim mundarijasining navbatdagi ta'lim bosqichida "siquqlik" keltirib chiqarishi mumkin

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar va talablardan kelib chiqib, pedagogik ta'limning zamonaviy OTMlarda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash talablari asosida shakllantiriladigan strukturasi keltirish mumkin. Quyida pedagogik ta'limning eng muhim tuzilmaviy komponentlari, ularning xossalari va har bir komponentni alohida rivojlantirish bo'yicha mavjud usullar hamda muallifning mutaxassislar mulohazalari asosida ishlab chiqqan tavsiyalari jadval shaklida ko'rgazmali taqdim etiladi (*qarang: 1.11-jadval*).

1.12-jadval. Pedagogik ta'lim strukturasidagi asosiy komponentlarni rivojlantirish bo'yicha mavjud usullar va tavsiyalar (V. V. Kraevskiy, V. S. Lednev, I. Ya. Lerner, M. N. Skatkin va boshqalar asosida)

Pedagogik ta'limning komponentlari	Qisqacha xususiyatlari	Rivojlantirish bo'yicha mavjud tavsiyalar	Muallif tomonidan beriladigan tavsiyalar
Fundamental umumilmiy, maxsus, pedagogik-psixologik va metodik bilimlar majmuasini shakllantirish	OTM ta'lim dasturida ko'zda tutilgan har bir fan bo'yicha talab darajasidagi ilmiy, metodik va intellektual bilimlar bevosita o'quv jarayonida shakllantiriladi	O'qitishning mavjud sharoitlar uchun samarali hisoblangan metod, shakl, vosita va texnologiyalarini joriy etish	Ushbu bilimlar majmuasi talabalar uchun nafaqat kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish uchun ham zarurdir.
Maxsus, psixologik-pedagogik, metodik, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish	Amaliy dars mashg'ulotlari, laboratoriya, seminarlar, mustaqil ishlar, ilmiy konferensiyalar, o'quv va pedagogik amaliyotlar vositasida	O'qituvchi nazariy dars mashg'ulotlarida har bir mavzu bo'yicha yuzaga chiqargan muammoli vaziyatni amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarida hal etishi, o'quv kursi bo'yicha muammolarni mustaqil ishlar, konferensiyalarda hal etishga erishish	Bu ko'nikmalar talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash, balki amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlashga, pedagogik vazifalarni samarali bajarishga, va ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.
Ijodiy-metodik, kreativ faoliyatning umumlashtirilgan tajribasini shakllantirish	Intiluvchanlik, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatda tezkorlik bilan qo'llay olish mahorati, pedagogik vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qila olish, metodik bilimlarni ijodiy mahorat bilan uyg'unlashtira olish kabi malakalar	O'quv dasturlarini ishlab chiqishda talabalarning metodik bilimlari, kreativ potentsiali, ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi elementlar salmog'ini oshirish, dasturning har bir sifat va qobiliyatni shakllantirishga qaratilgan materiallar bilan boyitilganligi	Ijodiy-metodik faoliyatni shakllantirish uchun, ta'lim jarayonida yangi va samarali o'qitish usullarini qo'llash zarur. Masalan, guruhli ishlash, loyiha asosida o'qish, interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ijodiy yondashuvlarni rag'batlantiradi.
Ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan kommunikativ munosabatlarni har tomonlama samarali yo'lga qo'yish madaniyatini shakllantirish	Talabaning o'quv va pedagogik amaliyotda, ilmiy konferensiyalar, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda o'z kommunikativ imkoniyatlarini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish	O'quv va pedagogik amaliyotlar rejasida amaliyotchi talabaning ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan bevosita munosabatlarga kirishi va undagi emotsional-irodaviy va psixomotorli sifatlarni rivojlantirish nazarda tutilishi lozim	Ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar ta'limning samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Bir qator konstruktiv muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Biz pedagogik ta'lim asosida bajariladigan funksiyalar, pedagogik ta'limni rivojlantirishga qaratilgan asosiy tendensiyalar, shuningdek, pedagogik ta'limning strukturaviy komponentlarini rivojlantirish orqali bu tizimni takomillashtirish usullari bilan tanishib chiqdik (qarang: 1.8-, 1.9-, 1.10-, 1.11 jadvallar) va taqdim etilgan usullarning aksariyatida pedagogik ta'limni tashkil etishda negiziy asos vazifasini o'tovchi pedagogik jarayonda pedagogik ta'limning mazmun-mundarijasini zamonaviy talablar asosida loyihalashtirish muhimligi: bu esa OTMda o'rganiladigan fanlarning o'quv dasturlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashuvni taqozo etadi. Demak mulohazalardagi izchillik va ketma-ketlik shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi-pedagoglarning zarur darajada kasbiy tayyorlanganligiga erishish uchun OTMdagi pedagogik ta'limni takomillashtirish zarur,

pedagogik ta'lim esa sifatli va mahsuldor pedagogik jarayon natijasidir, pedagogik jarayonning mahsuldorligi ta'lim mazmun-mundarijasining muvaffaqiyatli ishlab chiqilganligiga bog'liq, ta'lim mazmun-mundarijasining talab darajasida loyihalashtirilishi o'quv dasturlarining boyitilib borishini taqozo etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. A.V.Глузман, Н.В.Горбунова, А.А.Глузман, Структура, содержание и функции университетского педагогического образования, "Педагогическое образование", 2020, №4, 19-с].
2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-son Qarori. 2017 yil.
3. Ziyodova T.U. Matn yaratish texnologiyasi. –T.: Fan, 2007. – 142 b.
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 1999. – 384 с
5. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000dan ortiq so'z va so'z birikmasi J II B-M – 2006. – 663-664 b 246
6. Xodjayev B.X Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish Dis ...ped fan dok-T.: 2016-314 b
7. O'rozova M.B. Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish.: Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – T., 2015.248
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: Учебное пособие для высших учебных заведений и институтов. – М.: Учпедгиз, 1946. – 704 с
9. Поляков С. Сколько баллов по шкале?..: отметка как зеркало российского образования // Школьное обозрение. – 2003. – № 2. – С. 2-7
10. Гершунский Б.С. Образовательно-педагогическая прогностика: теория, методология, практика. – М.: Флинта: Наука, 2003. – 764 с
11. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы: Учебно-методическое пособие. М.: Высшая школа, 1980. 368 с
12. Гильманов С. Творческая индивидуальность педагога //Школьная практика. – 2004. - №1. – С. 197-207

LINGVOSCIENCES.UZ

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIK
FANLARINING DOLZARB MASALALARI

CORRENT ISSUES IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

1-jild 2-son 2025-yil

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).